



**BUXORO VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI**



*2024- yil yanvar-aprel oylari  
uchun dastlabki ma'lumot*

# **BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
(65) 223-75-63*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Viloyatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 432,6 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 12,2 mln. AQSH dollariga yoki 2,0 % ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar - aprel , mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 432,6 -2,7%

(2023- y.: 444,8)



Saldo

2024- y.: -247,0 (2023- y.: -257,9)



### Eksport

2024- y.: 92,8 -0,7%

(2023- y.: 93,4)

TSA'dagi ulushi, % da



21,4



### Import

2024- y.: 339,8 -3,3 %

(2023- y.: 354,4)



78,6

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 92,8 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar - aprel oylariga nisbatan 0,7 % ga ko‘paydi) va import hajmi 339,8 mln. AQSH dollariga (3,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -247,0 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar - aprel, mln. AQSH dollari)











<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 147,3</p> <p>Eksport: 9,2 Import: 138,1</p> <p> 34,0%</p>	<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 116,7</p> <p>Eksport: 29,4 Import: 87,3</p> <p> 27,0%</p>	<p><b>Turkmaniston</b></p> <p>TSA – 41,6</p> <p>Eksport: 2,9 Import: 38,7</p> <p> 11,4%</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 26,2</p> <p>Eksport: 8,5 Import: 17,7</p> <p> 6,1%</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 19,7</p> <p>Eksport: 4,5 Import: 15,2</p> <p> 4,6%</p>
<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 14,0</p> <p>Eksport: 2,3 Import: 11,7</p> <p> 3,2%</p>	<p><b>Eron</b></p> <p>TSA – 13,3</p> <p>Eksport: 1,6 Import: 11,7</p> <p> 3,1%</p>	<p><b>Afq‘oniston</b></p> <p>TSA – 13,1</p> <p>Eksport: 13,0 Import: 0,1</p> <p> 3,0%</p>	<p><b>AQSH</b></p> <p>TSA – 5,9</p> <p>Eksport: 5,7 Import: 0,2</p> <p> 1,4%</p>	<p><b>Qirg‘iziston</b></p> <p>TSA – 5,6</p> <p>Eksport: 4,7 Import: 0,9</p> <p> 1,3%</p>











Buxoro viloyati jahonning 50 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (34,0 %), Rossiyada (27,0 %), Turkmanistonda (11,4 %), Turkiyada (6,1 %) va Qozog‘istonda (4,6 %) qayd etilgan.



## BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


( 2024- yil yanvar -aprel, mln. AQSH dollari)

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>XXR</b>		<b>52,0</b>	<b>57,9</b>	<b>147,3</b>
	<i>Eksport</i>	8,0	4,3	9,2
	<i>Import</i>	44,0	53,6	138,1
<b>Rossiya</b>		<b>78,1</b>	<b>194,6</b>	<b>116,7</b>
	<i>Eksport</i>	20,3	23,3	29,4
	<i>Import</i>	57,8	171,3	87,3
<b>Turkmaniston</b>		<b>75,1</b>	<b>32,3</b>	<b>41,6</b>
	<i>Eksport</i>	2,2	2,9	2,9
	<i>Import</i>	72,9	29,4	38,7
<b>Turkiya</b>		<b>52,3</b>	<b>31,1</b>	<b>26,2</b>
	<i>Eksport</i>	11,3	11,1	8,5
	<i>Import</i>	41,0	20,0	17,7
<b>Qozog'iston</b>		<b>22,1</b>	<b>38,5</b>	<b>19,7</b>
	<i>Eksport</i>	7,9	7,8	4,5
	<i>Import</i>	14,2	30,7	15,2
<b>Germaniya</b>		<b>14,3</b>	<b>8,5</b>	<b>14,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	2,6	2,3
	<i>Import</i>	13,6	5,9	11,7
<b>Eron</b>		<b>19,3</b>	<b>14,1</b>	<b>13,3</b>
	<i>Eksport</i>	6,1	1,7	1,6
	<i>Import</i>	13,2	12,4	11,7
<b>Afg'oniston</b>		<b>10,5</b>	<b>15,0</b>	<b>13,1</b>
	<i>Eksport</i>	10,3	15,0	13,0
	<i>Import</i>	0,2	-	0,1
<b>AQSh</b>		<b>-</b>	<b>0,2</b>	<b>5,9</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	5,7
	<i>Import</i>	-	0,2	0,2
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>		<b>27,9</b>	<b>8,3</b>	<b>5,6</b>
	<i>Eksport</i>	8,1	6,8	4,7
	<i>Import</i>	0,5	1,5	0,9

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>Hindiston</b>		<b>1,2</b>	<b>3,5</b>	<b>3,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,3	1,7	3,1
	<i>Import</i>	0,9	1,8	0,7
<b>Litva</b>		<b>4,8</b>	<b>5,4</b>	<b>3,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,5	0,5	0,7
	<i>Import</i>	4,3	4,9	2,4
<b>Tojikiston</b>		<b>2,5</b>	<b>4,6</b>	<b>3,1</b>
	<i>Eksport</i>	1,3	4,1	2,2
	<i>Import</i>	1,2	0,5	0,9
<b>Koreya Respublikasi</b>		<b>2,0</b>	<b>2,5</b>	<b>2,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,2	0,2
	<i>Import</i>	1,9	2,3	2,5
<b>Belarus</b>		<b>0,8</b>	<b>6,2</b>	<b>2,7</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	0,3
	<i>Import</i>	0,8	6,2	2,4
<b>Polsha</b>		<b>3,8</b>	<b>4,8</b>	<b>2,4</b>
	<i>Eksport</i>	1,2	2,6	1,4
	<i>Import</i>	2,6	2,2	1,0
<b>Belgiya</b>		<b>0,3</b>	<b>0,2</b>	<b>1,9</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,3	0,2	1,9
<b>Finlyandiya</b>		<b>0,1</b>	<b>0,1</b>	<b>1,1</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,1	0,1	1,1
<b>B.A.A</b>		<b>0,7</b>	<b>2,3</b>	<b>1,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	1,7	0,1
	<i>Import</i>	0,3	0,6	0,9
<b>Ozarbajjon</b>		<b>0,5</b>	<b>1,1</b>	<b>0,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,3	1,1	0,8
	<i>Import</i>	0,2	-	-



## BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-aprel mln. AQSH doll.)\*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor 38,6 % ulush bilan 77,9 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shofirkon tumani 0,7 % ulush bilan 1,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-aprel oylarida 190,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 45,5 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 145,3 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




### BUXORO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar aprel, ulushi, % da)



Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (29,7 %), Turkmaniston (15,8 %) hamda Qozog'iston (3,3 %) davlatlari bilan qayd etildi.

## BUXORO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yanvar - aprel, mln. AQSH dollari)



Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 144,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 38,9 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 105,8 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.





## BUXORO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar - aprel)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 187 taga yetdi va ular tomonidan 92,8 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar - aprel ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## BUXORO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI ( 2024- yil yanvar - aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>93,4</b>	<b>92,8</b>	<b>104,5</b>	<b>99,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,8	3,8	70,9	39,2	10,5	4,1
Ichimliklar va tamaki	1,9	0,6	7,1 m.	34,0	2,0	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,2	8,9	43,7	2,1 m.	4,5	9,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	15,6	12,9	125,8	82,5	16,7	13,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,8	-	-	-	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4,1	1,2	2,1 m.	29,7	4,4	1,3
Sanoat tovarlari	46,7	51,8	103,1	110,9	50,0	55,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,7	0,3	-	41,2	0,8	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	4,6	5,7	2,4 m.	121,5	4,9	6,1
Xizmatlar	5,8	6,8	171,5	118,1	6,2	7,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,7 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (59,7 %), turli xil tayyor buyumlar (6,7 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (14,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.






## BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024-yil yanvar-aprel)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya Federasiyasi	23,3	29,4	114,8	126,2	1	1
Afg'oniston	15,0	13,0	145,6	86,7	2	2
XXR	4,3	9,2	53,8	2,1 m.	6	3
Turkiya	11,1	8,5	98,2	76,6	3	4
AQSH	-	5,7	-	-	30	5
Qirg'iziston	6,8	4,7	84,0	69,1	5	6
Qozog'iston	7,8	4,5	98,7	57,7	4	7
Hindiston	1,7	3,1	5,7 m.	182,3	12	8
Turkmaniston	2,9	2,9	131,8	100,0	8	9
Germaniya	2,6	2,3	3,7 m.	88,5	9	10
Tojikiston	4,1	2,2	3,1 m.	53,7	7	11
Eron	1,7	1,6	27,9	94,1	13	12
Polsha	2,6	1,4	2,2	53,8	10	13
Ozarbajjon	1,1	0,8	3,7 m.	72,7	15	14
Ukraina	1,2	0,8	120,0	66,7	16	15
Litva	0,5	0,8	100,0	160,0	20	16
Belarus	-	0,3	-	-	33	17
Bangladesh	0,5	0,3	-	60,0	32	18
Koreya Respublikas	0,2	0,2	2,0 m.	100,0	22	19
Pokiston	1,3	0,2	162,5	15,4	14	20



## BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar - aprel, mln.AQSH doll.)\*



2023- y.

2024- y.

Viloyatda eksport tarkibida eng yuqori ulushni Buxoro shahri **26,8** foiz ulush bilan **5,2** mln. AQSh dollarni, eng quyi ulushni esa Jondor tumani **0,9** foiz bilan **0,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar -aprel oylarida 4,8 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 84,6 % ga yoki 26,4 ming tonnaga kamaydi.


Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (28,9 %) va Saudiya Arabistoni (2,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar- aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 2,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 69,7 % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar - aprel, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)





## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar - aprel oylarii yakuni bo'yicha 9,8 mln. AQSH dollarilik 14,5 % ini, o'tgan yilga nisbatan 83,0 % ni tashkil etdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida trikotaj mato (88,0 %), tayyor to'qimachilik mahsulotlari (9,9 %) asosiy ulushni egallagan.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar - aprel, mln. AQSH dollari)





## BUXORO VILOYATINING IMPORTI




2024- yil yanvar - aprel oylarida import hajmi **339,8** mln. AQSh dollarini va 2023- yilga nisbatan **96,7** foizni tashkil qildi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (**48,4** foiz) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**36,5** foiz) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar - aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar –aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,5 mln. AQSH dollariga kamaydi va 339,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## BUXORO VILOYATININGNING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar - aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>351,4</b>	<b>339,8</b>	<b>119,8</b>	<b>96,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	10,4	5,8	86,4	55,7	3,0	1,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,0	4,7	94,7	67,5	2,0	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	203,6	124,0	182,4	60,9	57,9	36,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	0,5	92,3	-	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	32,1	19,0	109,8	59,3	9,1	5,6
Sanoat tovarlari	13,6	16,9	56,1	123,9	3,9	5,0
Mashinalar va transport asbob uskunalari	78,5	164,5	78,7	2,1 m.	22,3	48,4
Turli xil tayyor buyumlar	5,7	4,1	68,9	72,0	1,6	1,2
Xizmatlar	-	0,2	-	-	-	0,1






## BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024-yil yanvar - aprel,)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	53,6	138,1	121,8	2,6 m.	2	1
Rossiya	171,3	87,3	3,0 m.	51,0	1	2
Turkmaniston	29,4	38,7	40,3	131,6	4	3
Turkiya	20,0	17,7	48,8	88,5	5	4
Qozog'iston	30,7	15,2	2,1 m.	49,5	3	5
Germaniya	5,9	11,7	43,4	198,3	8	6
Eron	12,4	11,6	93,9	93,5	6	7
Koreya Respublikasi	2,3	2,5	191,7	108,7	10	8
Belarus	6,2	2,4	7,8 m.	38,7	7	9
Litva	4,9	2,4	113,9	48,9	9	10
Belgiya	0,2	1,9	100,0	9,5 m.	24	11
Finlyandiya	0,1	1,1	100,0	11,0 m.	33	12
Polsha	2,2	1,0	84,6	45,5	11	13
B.A.A	0,6	0,9	150,0	150,0	18	14
Tojikiston	0,5	0,9	41,7	120,0	20	15
Qirg'iziston	1,5	0,9	3,0 m.	60,0	14	16
Bolgariya	0,1	0,7	-	7,0 m.	32	17
Hindiston	1,8	0,7	2,0 m.	38,9	13	18
Niderlandiya	1,8	0,6	36,7	33,3	12	19
Chexiya Respublikasi	1,4	0,5	2,8 m.	35,7	15	20



## BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024 -yil yanvar - aprel, mln. AQSH doll.)



2023-y.

2024-y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **41,2**foiz ulush bilan **102,9** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Shofirkon tumani **0,2**% ulush bilan **0,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.